

**BOLALAR NUTQINING RIVOJLANISHIDA ATROF
MUHIT VA OILANING AHAMIYATI**

Voxobova Munira

Namangan davlat pedagogika instituti oqituvchisi

Turg`unbayeva Shoxistaxon

Maxsus pedagogika yo`nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada bolalar nutqining rivojlanishi, nutq rivojlanishiga ta`sir etuvchi omillar hamda bolalar nutqining rivojlanishida oila va ijtimoiy muhitning ta`siri haqida ma`lumotlar berilgan, tahlil qilingan.

Kalit so`zlar: bola, nutq, oila, munit, qo`rquv, go`daklik, bog`cha, kichik mактаб Yoshi.

Bolalarning kamol topib ulg`ayishidagi va yetuk shaxs sifatida namoyon bo`lishidagi eng asosiy omillardan biri bola nutqining rivojlanishidir . Bola nutqining rivojlanishida atrof muhitning va oilaning o`rni birdek ahamiyatli .

Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish , ularni narsa va hodisalarni idrok etishga, o`zini qiziqtirgan masalalar to`g`risida fikr yuritishga , o`ylashga , nutqini o`stirishga yordam beradi . Ularning nutqini rivojlantirishda atrof muhitdagi narsalarni turli sezgi a`zolari ta`sirida sezish ham yordam beradi .

Bolalar nutqining rivojlanishida oilaning ahamiyati. Bola to tug`ilguncha onasi bilan o`zaro jismonan kindik orqali bog`langan bo`lsa , tug`ilgach uch yoshga kirguncha ona va bola psixologik jihatdan o`zaro kindik bilan bog`langan bo`ladi , ya`ni onadagi har qanday holat: stress , tushkunlik yoki aksincha, ko`tarinki kayfiyat bolaning nutqiga ta`sir ko`rsatmasdan qolmaydi. Onaning nafaqat kayfiyati , balki uning iste'mol qilgan: taomi , alkagol vositalari , bilib-bilmay ichgan dorilari ham farzandning har tomonlama rivojlanishiga ta`sir .

Nutq tug`ma bo`lmaydi , bola tug`ilganidan so`ng rivojlanadi . Bolalarning nutqi oila a`zolarining ta`sirida shakllanadi , ya`ni bola eshitgan so`zlarini ularga taqlid qilib qaytaradi , shuning uchun nutqqa alohida e'tibor berish kerak . Bolaning nutqi uning atrofidagi insonlar ta`sirida rivojlanadi . So`zlarni talaffuzida aniq , ravon , to`g`ri talaffuz etish zarur . Bola tug`ilganidan so`ng yig`laydi , qichqirdi , lekin bu nutq emas . Go`dak ikki haftalik davrida eshitilgan tovushga e'tibor beradi . Bir oylik davrida bolani alla aytib tinchlantirish mumkin . Ikki oylik davr gu-gulash , uch oylikda esa bog`inlarni aytadi .Besh oylikda tovushlarni eshitib , taqlid qilishga harakat qiladi . Olti oyligida taqlid qiladi . Mana shu tarzda bola oila a`zolaridan gapirishni o`rganadi .

Bolani yoshligidan boshlab nutqini to‘g‘ri rivojlantirish uchun ota-onalar quyidagilarga amal qilish kerak:

- fikrini eshitish;
- qattiq gapirmaslik;
- kulib , muloyim ohangda so‘zlash;
- bolaning yoshiga mos va qiziqishlarini inobatga olgan holda suhbatlashish;
- kattalar o‘zlarining fikrlarini , gaplarini bolaga o‘tkazishga harakat qilmasliklari kerak;
- bolani atrof muhitdan va do‘stlaridan ajratmaslik kerak;
- bola yonida boshqalar bilan urishmaslik , qo‘pol so‘zlamaslik kerak;

Agar quyidagilarga amal qilinmasa nutq yetarlicha rivojlanmaydi , natijada bolaning so‘z boyligi kambag‘allashadi , tengdoshlaridan ajralib qoladi , rivojlanishda ulardan ortda qoladi, malumotlarni yaxshi o‘zlashtira olmaydi , jur‘atsiz va qo‘rwoq bo‘lib voyaga yetadi. Oila a‘zolarining bolaga qattiq baqirishi , urishishi yoki bir-birlariga shunday muomala qilishlari bolaning qisqa vaqtga yoki butunlay gapirmasligiga sabab bo‘lishi mumkin . Qo‘rquv bolaning nutqida duduqlanishga yoki boshqa kamchiliklarga ham sabab bo‘lishi mumkin . Bolalar nutqining rivojlanishida atrof muhit ham oila a‘zolari ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi .

Bolalar nutqining rivojlanayotgan davrida ,asosan , bog‘cha yoki kichik maktab yoshida ota-onalar farzandlariga ko‘proq e’tibor berishlari kerak . Ularning nutqida ba‘zi nuqsonlar mavjud bo‘lsa buning oldini olish zarur. Ko‘pchilik bolalar nutqida sh , ch , g , k , b , p , r , j , z , s tovushlarining talaffuzi buzilishi kuzatiladi . Bunday paytda oila a‘zolari logopedga murojaat qilishlari kerak . Oila a‘zolarining o‘zlari ham bolaning nutqidagi kamchilikni bartaraf etishga yordam berishlari lozim .Buni uyda turli o‘yinlar yordamida amalga oshiriladi . Masalan: bola r undosh tovushini aytma olmasa , r tovushi o‘rniga ko‘pincha l , y , g‘ tovushini aytishi yoki umuman tovushni talaffuz etmasa , r tovushi mavjud bo‘lgan qurbaqa yoki traktor rasmi yoki o‘yinchog‘ini qo‘lga olib bu nima ? , qanday ovoz chiqaradi ? deb boladan so‘rash kerak .

Bola dastlab qurbaqa so‘zini qur-qur-... tarzida , keyinchalik esa qurbaqa tarzida aytadi. Agar sh undosh tovushini aytma olmasa , yashash so‘zini yasash tarzida talaffuz etish bolalar va hattoki kattalar nutqida ham uchraydi . Bu holat ko‘pincha kattalarda charchagan paytlarda yuz beradi , ular o‘z ustlarida ko‘proq ishlashlari lozim , bolalar bilan esa mutaxassislar va oila a‘zolari ishslashlari kerak . Bolaga shaftolini ko‘rsatib bu nima ? deb so‘rash mumkin yoki sh tovushi mavjud bo‘lgan biror she‘r , qo‘sish , tez aytishni ayttirish kerak . O‘yin va mashg‘ulotlarni bolaning qiziqishlariga qarab tanlash zarur .

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. M. Asqarova , S. Matchonov "Kichik yoshdag'i bolalar nutqini o'stirish" Toshkent "O'zbekiston" 2001
2. Shohista Toshpo'latova , Fotima Qodirova , Nargiza Kayumova , Malohat A'zamova "Maktabgacha pedagogika" Toshkent "Tafakkur" 2019 .
3. Л.С.Выгодский. Развитие высших психических функций. М. 1976.
4. 15. Mavlanova, O.To‘rayeva, Murodov. «Pedagogika». 0 ‘qituvchi. 2000.
5. Л.Р.Мўминова, М.Ю.Аюпова. “Логопедия”, Тошкент, 1993.
6. Е.Л.Крутий. “Волшебная логопедия”, Столкер, 1999. 3. О.В.Провдина. “Логопедия”, Москва, 1977.
7. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika: Oligofrenopedagogika /P.M.Po'latova.-T.: G ‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005. 224 b.
8. Г.А.Волкова. “Логопедическая ритмика”, Москва, 1985.